

ONA TILI - MILLAT MA'NAVİYATINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Muxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi
Farg`ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada ona tili millatning o`chmas ruhi ekanligi, o`zbek tiliga davlat maqomi berilgani va ona tili bo`lmish o`zbek tilining tarixi, uning rivojlanish istiqbollari va bugungi kunda ona tilimizga qaratilgan e`tibor, shuningdek o`zbek tilini o`qitishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *ona tili, millat, ruh, ma`naviyat, mustaqil davlat, davlat tili to`g`risidagi qonun, adabiy til, tarix, tamaddun.*

KIRISH

Til – millat ko`zgusi. Shu bois, ma`rifatparvar adib Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig`ini ko`rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo`qotmak millatning ruhini yo`qotmakdur”, deya xitob qilishi bejiz emas edi. Zero, ma`naviyatning ko`zgusi bo`lgan ona tiliga bo`lgan munosabat shaxsning ma`naviyatga bo`lgan munosabatini ham belgilaydi. Murg`ak qalb ona tili vositasida ma`naviyatga oshno bo`ladi. Yosh avlodga tilga e`tibor va ehtirom ko`rsatib, unga davlat tili sifatida qarashning mas`uliyati kabi tuyg`ularni singdirish va mustahkamlab borish muhim vazifadir. Bu xususda ko`p va xo`p gapirilgan bo`lishiga qaramay, muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Milliy qadriyatlarimizning asosiy ustuni bo`lgan ona tilimizga 1989-yil 21-oktabr kuni davlat maqomi berildi. O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi qonuni qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida ham davlat tili – o`zbek tili ekani mustahkamlab qo`yildi. O`zbek tili davlatimizning ramzlari qatorida turadigan va qonun yo`li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi.

Har bir kishi ona tilimizni ulug`lashi, uning softligi uchun kurashishi, kerak bo`lsa, himoya qilishi kerak. So`nggi yillarda davlat tiliga e`tibor kuchaydi. Prezidentimiz 2019-yil 21-oktabr kuni “O`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o`ttiz yilligi”ga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida “Kimda-kim o`zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta`sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo`lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o`lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo`shiqlariga quloq tutsin”, deya ta`kidlaganlari har birimizning ona tilimizga bo`lgan mehrimizni yanada oshirdi. Bu so`zlar aslida, barchani o`zbek tiliga bo`lgan e`tibori va hurmatini yuksaltirishga qaratilgan ulkan chorlov da`vati bo`ldi. Haqiqatdan ham onalarimizning allasi-yu, tariximizda yozib bitilgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma`naviy merosi tilimizning softligi-yu va bebaholigidan so`zlaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmon imzolandi. 21-oktabr sanasi yurtimizda “O`zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi.

O‘z tilini hurmat qilgan ma‘rifatli inson o‘zga xalqlarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. Buni mamlakatimizda ta‘lim jarayonlari yetti tilda tashkil etilayotgani misolida ko‘rishimiz mumkin. Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, madaniyatlarining hurmat qilinishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi[1].

O‘zbek tili (O‘zbekcha yoki Turkiy O‘zbekcha) – Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi Qonun 1989 yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi. O‘zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi: Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI-VII asrlar) shu tilda yaratilgan. XI-XIV asrlarda amalda bo‘lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu-lug‘atit-turk» («Turk tillari devoni»), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug‘oni»), Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Rabg‘uziyning «Qissai Rabg‘uziy» asarlari shu tilda yaratilgan. XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

Muhokama va Natijalar

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi asosan, 5 manba negizida tashkil topgan:

1. umum turkiy so‘zlar.
2. o‘zbekcha so‘zlar.
3. fors-tojikcha so‘zlar.
4. arabcha so‘zlar.
5. ruscha so‘zlar.

Tarixda o‘zbek tilini yozish uchun ko‘p alifbolardan qo‘llanilgan. 1928 yilgacha savodli kishilar o‘zbek tilini arab yozuvida yozishgan. 1928-yildan 1940 yilgacha o‘zbek tili lotin yozuvida yozilgan. 1940-yil Iosif Stalinning buyrug‘i bilan majburan kirill yozuviga o‘tilgan. 1992-yilgacha o‘zbek tili shu yozuvda yozilgan. 1993-yil O‘zbekiston rasman lotin yozuvini yana qaytadan kirgizdi. Hozirda O‘zbekistonda ta‘lim joylarida lotin yozuvidan qo‘llaniladi. Shunday bo‘lsa ham yoshi kattalar va O‘zbekiston tashqarisida yashaydigan o‘zbeklar hali ham kirill yozuvidan qo‘llanishadi.

21-oktabr O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun. Til insonlarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne‘matidir. Millatlarni millatlardan ajratib

turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda har bir xalqning o'z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so'zlar, she'ru dostonlar, qo'shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o'z nufuzi, obro'siga ega bo'ladi. Har bir xalqqa o'z tili aziz va ardoqli. Sho'rolar davrida rus tili Ittifoq tili sifatida rivojlantirildi. U jahon tillari darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, ko'p ming asrlik tarixga ega bo'lgan turkiy xalqlar ham o'z ona tillari dunyodagi hech bir xalqning tilidan kam emasligini yoqlab chiqdilar. Bu yo'ldagi sun'iy to'siqlarni pisand etmadilar. Mustaqillik arafasida oilaviy va bozor tili darajasiga tushib qolgan o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi taklif va kurashlar samarasiz ketmadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlat hujjatlari, davriy nashrlar, darsliklar ona tilimizda yozila boshlandi. Bu xalqimiz ruhini ko'tardi. Sho'rolar davrida ham o'zbek tilini tiklashga, uni Davlat tiliga aylantirishga intilish kuchli bo'lgan. Xususan, ona tiliga bag'ishlangan turli tadbirlar o'tkazishga harakat qilingan bunday tadbirlar ayniqsa, mustaqillik arafasida tez-tez o'tkazila boshlangan. 1988 yil matbuotda yangi bayram - «Til bayrami» haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshlagan. Bunday bayram Rossiya Federasiyasi, Ukraina, Boltiq bo'yi va Kavkaz orti respublikalarida va mamlakatimiz poytaxtida ham o'tkazilgani haqida gazetalarda maqolalar bosilgan. Bu bayramlarning asosiy maqsadi - ona tilini e'zozlash, ona tili bilan birga boshqa tillarni ham chuqurroq o'rganishga da'vat qilish bo'lgan. O'zbekistonda ilk bor «Til bayrami» 1988 yil 3 dekabrda Toshkentning talabalar shaharchasida ToshDUning o'zbek filologiyasi, tarix fakul'teti, shuningdek, politexnika instituti va boshqa o'quv yurti talabalari tomonidan o'tkazilgan. Talabalarning «O'zbek tili bayrami» deb nomlangan bu tadbiri ko'proq miting namoyishga o'xshab ketardi. Davraga notiqlar chiqib, ular ona tuproq, ona yurt, xalq, til haqida so'zlab, she'rlar o'qib, ularni asrashga da'vat qilishdi. Yig'ilganlar «Til - xalq boyligi», «O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilsin!», «Tilga hurmat - elga hurmat» kabi rang-barang shiorlarni ko'tarib olishgan edi. «Til bayrami»- da xonandalar xalqni, millatni, tilni ulug'lovchi qo'shiqlar kuylashdi. Yoshlarga alohida zavq-shavq baxsh etuvchi kichik kulguli sahna asarlari ijro etildi». 21 oktabrni o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun sifatida nishonlab kelmoqdamiz.

Til millatning mulki, hayoti, o'tmishi, kelajagi, qalbi hisoblanadi. Har bir millatning tilida o'sha xalqning qadriyati, ma'naviyati, o'zligi namoyon bo'ladi. Demak til-millatni millat, xalqni xalq qilib birlashtirib turadigan bebaho, nodir xazinadir. Bu xazinada o'sha millatga tegishli bo'lgan ma'naviyat ming yillar, asrlar davomida sayqallanib, rivojlantirilib, ko'z qorachig'iday asrab- avaylab kelinadi.

O'zbek tilimiz ham tillar Ichida o'z o'miga ega bo'lgan, eng boy, eng jozibador tillardan biridir. Dunyo tillari Ichida nufuziga ko'ra o'zbek tili 41-o'rinda turadi.

Bu tilda dunyo tamadduniga tamal toshini qo'ygan, insoniyat sivilizatsiyasiga salmoqli, ulkan hissa qo'shgan alloma va mutaffakirlar ijod qilgan. Nafaqat ijod qilgan, balki uni sayqallab, boyitib avlodlarga yetkazib kelishgan. Bu yo'lda kerak bo'lsa kurashgan, tilning sofliğini, yaxlitligini saqlab qolish uchun ma'naviy jangga kirishgan, jonlarini fido qilishgan. Masalan Qoshg'ariy-u Navoiylar, Ibn Sino-yu Zamaxshariylar, Avloniy-u Qodiriylar bu yo'lda ne-ne ishlarni qilishganidan ma'rifat ahli habardor albatta.

Bundan 35-yil muqaddam o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o`z davrida olamshumul voqea bo`lgan. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdanoq birinchi prezidentimiz tomonidan o`zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi kun tartibiga qo`yilib bu ish amalga oshirilgan edi. Bu kun yurtdoshlarimiz hayotidagi unitilmas, tarixiy voqeaga aylandi.

Shuni ta`kidlash kerakki, o`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo`lidagi muhim qadamlaridan biri bo`lgan edi. Istiqloq yillarida barcha sohalarda bo`lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o`zgarishlar yuz berdi. O`zbek tilining xalqaro miqyosda obro`si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go`zalligi va jozibasini to`la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Respublikamizda o`qishning ona tilida olib borilishi tilimizga bo`lgan ahamiyatni namoyon qiladi. Ta`lim-tarbiya o`zbek tilida olib borilsa, xalqning madaniyati, ma`naviyati, urf-odat va an`analari, milliy o`zligi va tarixiy xotirasi saqlanib qoladi. Aksincha o`qish boshqa tilda olib borilsa millat tubdan yo`q bo`lib ketishi mumkin. Chunki xalqni bu dunyoda borligini, mavjudligini ko`rsatib turuvchi yagona narsa bu til hisoblanadi. Xalq taqdiri, kelajagi bevosita til taqdiri bilan bog`liq.

XULOSA

Xulosa o`rnida shu narsani ta`kidlash kerakki, til har bir millar manaviyatining o`zagi hisoblanadi. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, urf-odat, an`analarini saqlaydi va ma`naviyatini, madaniyatini yuksaltiradi.

Bugungi kun millatdoshlarimizdan ham avval bo`lgani kabi milliy tilimizni asrash, sofligini saqlash va rivojlantirish hamda avlodlarga bus-butun holida yetkazib berish vazifasi talab etiladi. Bu sharaflı mas`uliyatni har bir soha vakili, millatning har bir farzandi his etmog`imiz va bajarmog`imiz ham farz, ham qarz.

Ko`nglimizda faxr hissini oshirgan yana bir hdisa shuki, davlatimiz rahbarining 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o`zbek tilida nutq so`zlashi bo`ldi. Bugun bu katta tashabbus haqida katta davralarda g`urur bilan gapirsak arziydi. Ona tilimizning xalqaro minbarda jaranglashi nafaqat yurtimiz fuqarolari, balki xorijdagi vatandoshlarimizning ham g`ururlanishiga sabab bo`ldi.

Tilni rivojlantirish, yuksaltirish barchaning vazifasi hisoblanadi. Mazkur masalada arhamiz birlashib, “Ona tili - millat ma`naviyatining mustahkam poydevori” shiorini umummilliy harakatga aylantirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: 2000-yil
2. Xalq so`zi, 2001-y, 25-oktabr
3. <https://ii.au.uz/oz/news/588>
4. <https://davaktiv.uz/oz/menu>.